



## INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH STATISTIKASI

**Tozabekov Nurbek**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Qilichev Ibrohim**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Otabekov Javdod**

*Guliston davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada investitsiyalardan samarali foydalanish va investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risklarni pasaytirishning amaldagi holati tahlili amalga oshirilgan. Muallif tomonidan mazkur risk darajasi ta'sirini yumshatish maqsadida sug'urtalanadigan va sug'urtalanmaydigan risklarga bo'lish tavsiya etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *investitsiya loyihasi, risk, investitsiya riski, diversifikatsiyalash, sug'urtalash, zaxiralash, limitlash, xejerlash, risklarni boshqarish*

### **Kirish**

Jahonda xalqaro kapital oqimiga va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning turli shakllari (infrastructure-oriented international project finance, cross-border M&As, greenfield investment)ni amalga oshirishga global risklarning salbiy ta'sirini baholash va ularning oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro Iqtisodiy Forum (World Economic Forum) hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasining oqibatlari, ekologiya va tabiiy iqlimning keskin o'zgarishi, iqtisodiy, ijtimoiy, geosiyosiy va xavfsizlikka oid tahdidlar hamda kiber risklarning turli davlatlar taraqqiyotiga salbiy ta'siri aniqlangan. Zamonaviy sharoitlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishni rivojlantirishda risklar, ularni baholash va pasaytirish yo'llarini qo'llashni takomillashtirish masalalariga e'tibor berish lozim. Investitsiya loyihasiga ta'sir qiluvchi risklar aniq holatlarda mutaxassislar va ekspertlar tomonidan loyiha qaysi tarmoqqa tegishliligi, loyihaning ko'lami, tanlangan texnologiya, loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy holat hamda loyihaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results):**

Amaliyotda investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi risklar ta'sirini pasaytirish uchun bir qancha yo'llardan foydalaniladi:

- riskdan qochish

– risk bilan bog'liq tadbirlardan voz kechishni (demak, bunda foydadan ham voz kechishni) bildiradi. Bunda bir qator riskli faoliyatlardan, ya'ni risk darajasi juda yuqori bo'lgan moliyaviy operatsiyalarga pul kiritishdan, katta miqdordagi qarz kapitalidan foydalanishdan hamda aylanma mablag'larini past likvidli aktivlarga yo'naltirishdan voz kechiladi;

- riskni ushlab qolish

– investor zimmasiga riskni qoldirish, bunda investor o‘z kapitalini riskli tadbirlarga yo‘naltirayotganda, risklardan ko‘riladigan zararlarni qoplash uchun zaxira mablag‘lari tashkil etiladi;

- riskni uzatish – investor riskni kimningdir zimmasiga (masalan, sug‘urta kompaniyasiga) yuklaydi. Riskni sug‘urtalash – muayyan risklarni sug‘urta kompaniyalariga berish orqali investorning riskdan qutilish maqsadida daromadning bir qismidan voz kechishi tushuniladi;

- risk darajasini pasaytirish – asosan risklarni diversifikatsiyalash, loyiha qatnashchilari o‘rtasida taqsimlash, limitlash, zaxiralash (o‘z-o‘zini sug‘urtalash), xejerlash hamda sug‘urtalash usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

**1-jadval**

**Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (Manba: stat.uz)**

Hududlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston respublikasi	821,4	108,2	1224,0	1431,7	1608,6	2277,8	3769,6	5834,6	6140,3	6861,0	7468,6
Qoraqalpog‘iston respublikasi	729,7	1400,7	2280,6	3388,2	2094,0	1542,2	3641,1	4644,4	3710,0	4189,2	5225,5
Andijon	504,5	525,8	581,0	678,4	745,3	999,6	1550,3	2406,0	3047,2	3470,1	4361,1
Buxoro	1399,9	1720,3	2023,4	2264,0	3237,6	6254,2	5112,4	5429,3	6295,0	10462,9	10855,5
Jizzax	662,8	928,1	969,6	1033,1	1125,1	1361,9	2693,9	5778,9	8984,7	64770,7	7107,9
Qashqadaryo	1095,5	1281,0	1613,1	1969,9	2389,3	3584,4	5193,4	7534,6	6214,7	5148,2	4647,7
Navoiy	1907,8	1896,4	1933,5	1965,1	3168,1	4185,4	10892,1	17855,2	15604,2	14672,4	17189,8
Namangan	376,0	485,6	714,7	863,8	1074,8	1340,3	2992,5	4344,1	4229,2	4477,8	4984,4
Samarqand	472,9	623,3	730,0	912,0	1001,6	1189,4	1878,3	2674,9	3746,0	3920,7	4642,5
Surxondaryo	437,7	600,1	646,8	773,0	879,1	1427,2	2848,3	4552,8	3792,2	4438,7	4169,4
Sirdaryo	890,1	1126,4	1288,1	1382,2	1660,3	2011,1	3280,2	7002,9	8425,4	9557,1	13919,1
Toshkent	747,	1178	1466	1595	1507,	2087	3898,	6970,	7169,	9644,	1256,

	5	,7	,6	,0	5	,2	4	0	0	5	8
Farg'ona	455, 6	634, 3	672, 0	731, 6	747,8	822, 4	1516, 8	2336, 2	2916, 0	3272, 3	3917, 2
Xorazm	477, 3	753, 1	950, 0	884, 7	885,8	1215, 1	1655, 6	2718, 4	2868, 2	4344, 3	4517, 9
Toshkent.sh	2336, 7	2120, 7	2522, 4	2877, 4	3848, 1	5552, 7	10627, 8	16710, 5	1965, 6	20619, 8	19539, 4

Bizning fikrimizcha, investitsiya loyihasiga ta'sir qiluvchi risklarni pasaytirishning aniq vositasini tanlashda ortiqcha tavakkalchilikka yo'l qo'ymaslik, risk oqibatlarini hisobga olish hamda kam samara uchun katta risk qilmaslik maqsadga muvofiqdir.

### **Xulosalar va taklif:**

Investitsiya loyihalariga ta'sir qiluvchi risk darajasini pasaytirish yo'llariga oid ilmiy maqolani yozish natijasi quyidagi xulosalarni shakllantirish, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlashda risklar tahlili hal qiluvchi rol o'ynaydi va bunday tahlilda investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan holatning tasodifiy xususiyati, muqobil qarorlarning mavjudligi, kutilajak natijaning ehtimolini aniqlash mumkinligi hisobga olinadi.

2. Riskni pasaytirishga qaratilgan eng maqbul siyosatni tanlash masalasi mikroiqtsodiy nazariya doirasida hal etiladi.

3. Muayyan holatlarda riskni kamaytirish vositalarini tanlash uning prognoz qilish qobiliyatiga bog'liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони.
2. Виленский П.Л., Лившиц В.Н., Смоляк С.А. Оценка эффективности инвестиционных проектов: Теория и практика: учеб. пособ. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: «Дело» АНХ. 2008. – 1104 с.
3. Rustamovich, U. S. (2017). Features of innovative water management in the modernization of economy. TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR), 6(1), 45-53.
4. Умаров, С. (2017). Основные направления инновационного развития водного хозяйства и его поддержка. Экономика и инновационные технологии, (1), 43-50.



5. Umarov, S. R. (1992). On the well-posedness of boundary value problems for pseudodifferential equations with analytic symbols. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 322, No. 6, pp. 1036-1039). Russian Academy of Sciences.
6. Umarov, S. R. (1993). Some boundary value problems for elliptic equations with a boundary operator of fractional order. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 333, No. 6, pp. 708-710). Russian Academy of Sciences.
7. Kochkarova, R. R., & Turgunov, E. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY LESSONS AT SCHOOL WITH THE HELP OF DIFFERENT GAMES. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(10), 15-19.
8. M.Z. Kuvatova, Sh.A. Turdiyeva, R.R. Kochkarova. (2023). USE OF VENN DIAGRAM AND NETWORK METHOD IN TEACHING THE TOPIC OF "IMPORTANT CLASSES OF INORGANIC COMPOUNDS" TEACHING METHODOLOGY IMPROVEMENT. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(10). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/223>
9. Bafoevich, U. B., Rasulovna, K. R. N., & Ziyodulloevna, K. S. (2021). REACTION OF 1, 1, 1-TRIFLUOROMETHYL-4-PHENYLBUTANEDIONE-2, 4 WITH BENZOIC ACID HYDRAZIDE. *INFORMATION TECHNOLOGY IN INDUSTRY*, 9(3), 939-944.
10. Кароматов, И. Д., & Гулямов, Х. Ж. (2017). Медицинские вопросы, освещенные в Библии. *Биология и интегративная медицина*, (4), 55-75.
11. Gulyamov, X. (2023). INTER-ETHNICITY IN THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE. *Interpretation and Researches*, 1(12). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1314>
12. Turayeva, G. (2023). The significance of sustainability of grain production in the consumer basket. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 01019). EDP Sciences.
13. Turayeva, G. (2023). Don ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashning iste'mol savatidagi ahamiyati. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(2), 440-444.
14. Toshtemirova Mokhira Makhmud qizi, & Jurakulova Durdona Shuxratovna. (2023). Parasites of the Oral Cavity. *Genius Repository*, 25, 19–20. Retrieved from <https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/176>
15. Rakhmonova Bakhora Kakhorovna, Marupova Madina Khikmatullayevna, & Toshtemirova Mokhira Makhmud kizi. (2023). IMPROVING THE SURGICAL METHOD OF SCAR MICROSTOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(9), 300–304. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/5572>